Toshkent shahrida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni sotsiologik tadqiqotlar asosida baholash.....	803
Tolipov Alisher Qo'chqarovich	
Globalashuv davrida jahon geografiyasida siyosiy jarayonlar.....	815
Mamatkulova Mayaguzal Yalkapberdiyevna	
Mintaqalarda investitsiya faoliyatini faollashtirish mexanizmi.....	819
Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li	
The role of human capital in ensuring employment at the regional level.....	824
Yang Ting	
Oliy ta'lim tizimiga jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan abituriyentlarni o'qishga qabul qilish tizimini takomillashtirish	831
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	



OLIY TA'LIM TIZIMIGA JISMONIY YOKI RUHIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN ABITURIYENTLARNI O'QISHGA QABUL QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich

“Menejment” kafedrası dotsenti, PhD

Guliston davlat universiteti

Elektron pochta: sherzodbek.uz1986@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda mavjud qonunchilik, qabul jarayonidagi muammolar, infratuzilma va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilg'or tajribalar hamda taklif etilayotgan yechimlar asosida tizimni yanada adolatli va inklyuziv qilish yo'llari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan abituriyentlar, oliy ta'lim, qabul tizimi, muvofiqlashtirilgan infratuzilma, huquqiy asoslar.

Abstract: This article discusses the issues of improving the system of admission of applicants with physical or mental disabilities to higher education institutions. It analyzes the existing legislation, problems in the admission process, infrastructure and pedagogical approaches. It also shows ways to make the system fairer and more inclusive, based on best practices and proposed solutions for supporting young people with disabilities.

Key words: inclusive education, applicants with disabilities, higher education, admission system, coordinated infrastructure, legal framework.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы приема в высшие учебные заведения лиц с ограниченными физическими и психическими возможностями. Анализируется действующее законодательство, проблемы в процессе приема, инфраструктура и педагогические подходы. Также показаны пути повышения справедливости и инклюзивности системы на основе передового опыта и предлагаемых решений для поддержки молодых людей с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, абитуриенты с ограниченными возможностями здоровья, высшее образование, система приема, координированная инфраструктура, правовая база.

KIRISH

O'zbekistonda so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va bu jarayon oliy ta'lim darajasida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar tizimini bosqichma-bosqich shakllantirishga zamin yaratmoqda. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan abituriyentlarning oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishida mavjud imkoniyatlar, rivojlanish istiqbollari hamda samarali yechimlar bo'yicha tahliliy yondashuvlar keltiriladi.

Tadqiqot doirasida xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan takomillashgan qabul mexanizmini ishlab chiqish taklif etilgan. Maqolada statistik ma'lumotlar, me'yoriy-huquqiy asoslar va so'rovnomalar natijalari asosida amaldagi tizimning samaradorligi baholanadi hamda inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan takliflar ilgari suriladi. Jahon miqyosida ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib, ayniqsa, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning oliy ta'limga teng asosda kirishini kafolatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2006-yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi 24-moddasida ta'kidlanishicha, barcha davlatlar nogiron shaxslarning oliy ta'lim tizimiga teng asosda kirishini



ta'minlashi lozim [1]. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir inson ta'lim olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, imkoniyati cheklangan abituriyentlarning ham oliy ta'limga erkin kirishi uchun teng sharoit yaratish har qanday demokratik jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yoshlar uchun test topshirishdagi sharoitlar, axborotga kirish imkoni, imtihon formatining mosligi kabi jihatlar doimiy takomillashtirib borishni talab etadi. Ushbu maqolada aynan shu yo'nalishda takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan abituriyentlarni o'qishga qabul qilish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, tadqiqotlar ko'proq inkluziv ta'lim tamoyillari, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ta'limdagi teng imkoniyatlarni ta'minlash mexanizmlari va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma masalalariga qaratilgan.

UNESCOning "Education for All" strategiyasida oliy ta'limda inkluzivlikni kengaytirish uchun huquqiy-me'yoriy asoslar bilan birga, texnologik va pedagogik moslashuvlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan. Oliver o'zining "The Politics of Disablement" asarida imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim jarayoniga to'liq integratsiyalashuvi faqatgina jismoniy kirish imkoniyatlari bilan emas, balki o'quv jarayoni mazmunining moslashtirilishi bilan ham bog'liq ekanini qayd etadi.

Ainscow va Miles inkluziv ta'limni rivojlantirishda universitetlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan pedagoglar sonini ko'paytirish va adaptiv o'quv resurslarini yaratish muhimligini asoslab bergan.

Shuningdek, Norvegiya, Kanada va Avstraliya oliy ta'lim tizimlaridagi inkluzivlik tajribalarini solishtirgan Pijl va Meijer tadqiqotlari, davlat siyosatining moslashuvchanligi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi qabul jarayonidagi asosiy omillar ekanini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy ishlar mazkur sohada O'zbekiston uchun ham xalqaro ilg'or tajribalarni moslashtirish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuv ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bir nechta metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Normativ-huquqiy tahlil doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda mamlakatning inkluziv ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi tegishli bandler chuqur tahlil qilindi. Statistik tahlilda 2000–2023-yillar oralig'ida imkoniyati cheklangan abituriyentlarning test sinovlarida ishtirok etish darajasi va qabul ko'rsatkichlari o'rganildi, bu jarayonda yillar kesimida dinamik tendensiyalar aniqlanib, ularning rivojlanish yo'nalishlari baholandi.

So'rovnoma usuli yordamida uchta oliy ta'lim muassasasida 50 nafar imkoniyati cheklangan talaba va 20 nafar qabul komissiyasi a'zosi o'rtasida so'rov o'tkazilib, mavjud tizimning afzalliklari va kamchiliklariga oid fikr-mulohazalar yig'ildi hamda tahlil qilindi. Taqqoslash va benchmarking yondashuvi asosida AQSh, Germaniya, Turkiya va Qozog'istonda amalda bo'lgan imkoniyati cheklangan abituriyentlarni qabul qilish tizimlari O'zbekiston tajribasi bilan solishtirildi, bunda xalqaro ilg'or amaliyotlar va ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Ekspert baholash metodida pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi yetti nafar mutaxassisning fikrlari o'rganilib, ularning taklif va tavsiyalari ilmiy asosda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yilda imkoniyati cheklangan abituriyentlarning oliy ta'limga qabul koeffitsiyenti 4,2 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich kelgusida ushbu toifadagi abituriyentlar uchun yaratiladigan imkoniyatlar kengayishi bilan bosqichma-bosqich oshishi kutilmoqda. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 76 % test sinovlari uchun yaratilgan sharoitlarni "qisman mos" yoki "mos emas" deb baholagan bo'lsa-da, bu kelajakda moslashuvchan test tizimlarini takomillashtirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. 2021-yildan boshlab joriy etilgan kvotalar ijobiy o'zgarishlarga turtki bergan bo'lib, yaqin yillarda test topshirish jarayonida Braille yozuvi, ekran o'quvchi dasturlar va logopedik yordam kabi qo'shimcha imkoniyatlar yanada kengaytirilishi rejalashtirilmoqda.

Xorijiy tajriba sifatida Turkiyada amalda bo'lgan "Engelli O'g'renci Yerleştirme Sistemi" modeli O'zbekiston sharoitida qisman moslashtirish mumkinligi aniqlandi. Ekspertlar inkluziv test markazlari tashkil etish, yakka tartibdagi imtihonlarni rasmiylashtirish, moslashtirilgan savollar bankini yaratish zarurligini aniqlagan. Inson huquqlari umumiy tamoyillariga ko'ra, har bir fuqaro teng huquqlarga ega bo'lib, ta'lim olish huquqi ham ularning asosiy huquqlaridan biridir. Shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayniqsa ko'zi ojiz yoshlar ham sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. So'nggi yillarda O'zbekistonda inkluziv ta'lim tizimini rivojlantirish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish bo'yicha qator muhim qadamlar




qo'yilmoqda. Qonunchilik asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida har bir shaxsga ta'lim olish huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonida ko'zi ojiz abituriyentlar uchun ayrim imtiyozlar joriy etilgan. Davlat oliy ta'lim muassasalarida har yili nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ajratilgan alohida qabul kvotalari mavjud. Test sinovlarida maxsus sharoitlar: ko'zi ojiz abituriyentlar uchun test sinovlarida Braille yozuvi, ovozli kompyuter dasturlari yoki maxsus yordamchi shaxslar orqali topshirish imkoniyati yaratilmoqda. Hujjat topshirish jarayonida yordam: ko'plab hududlarda Nogironlar jamiyatining vakillari yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali hujjatlarni rasmiylashtirishda maxsus yordam xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Ta'lim to'lovlaridan ozod qilish: ayrim hollarda ijtimoiy himoyaga muhtoj nogironligi bo'lgan talabalar to'lov-kontrakt asosidagi ta'lim xarajatlaridan ozod etilishi yoki davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin.

2025/2026-o'quv yilida ko'zi ojiz abituriyentlar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan imtihon olish dasturlari asosida o'qishga qabul qilingan. Lekin ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 393-son qarori¹, 3-ilova "Oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni o'qishga qabul qilish" tartibida ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi quyidagi abituriyentlar belgilangan: maxsus maktab-internatlar tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yetuklik attestatiga ega shaxslar; imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan diplomga ega shaxslar; 9 yillik ko'zi ojizlar maxsus maktab-internatida o'qigan va 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasi diplomiga ega bo'lgan shaxslar; umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida) hujjati yoki akademik litsey (kasb-hunar kolleji) diplomi mavjud bo'lib, ko'zi bo'yicha 1-guruh nogironligi to'g'risida belgilangan tartibda berilgan shakldagi ma'lumotnomasiga ega shaxslar.

Ko'zi ojiz abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga kirish chog'ida kirish imtihonlarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari uchun belgilangan fanlar majmuasiga mos keluvchi ko'p balli yoki ularga keltirilgan besh balli baholash tizimi bo'yicha, an'anaviy uslubda topshirishi belgilangan. Unga ko'ra, fanlar bo'yicha kirish imtihonlarini o'tkazish shakli (yozma yoki og'zaki) oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari, ko'zi ojiz abituriyentlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish uchun oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan maxsus mas'ul xodim ajratiladi. Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi kirish imtihonlarini o'tkazish uchun fanlar bo'yicha komissiyalarni tashkil etadi. Fan bo'yicha kirish imtihonlarining dasturlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari dasturlariga to'la muvofiq holda tuziladi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi. Kirish imtihonlarini o'tkazuvchi komissiya tarkibiga ko'zi ojizlar yoki Nogironlar jamiyatining vakili kiradi. Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari ko'zi ojiz abituriyentlar uchun kirish imtihonlari fanlari bo'yicha maxsus tuzilgan jadvalga binoan maslahatlar tashkil etadilar. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan (ko'p balli tizimda baholanganda — maksimal ballning 55 foizidan yuqori ball olgan, besh balli baholash tizimida baholanganda — "3", "4" yoki "5" baho olgan) abituriyentlar Davlat komissiyasi qarori asosida tanlovsiz, alohida ajratilgan o'rinlarga davlat grantlari asosida qabul qilinadilar [2].

Bu jarayonlarni tashkil etishda Respublika bo'yicha 14 ta hududdan bittadan oliy ta'lim muassasasi birlashtirilib, birinchi bosqichda ushbu toifaga kiruvchi abituriyentlarning ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va oliy ta'lim muassasasini tanlash jarayoni o'tkaziladi. Keyingi bosqichda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ushbu abituriyentlarning hujjatlari o'rganilib, yuqoridagi nizom talablariga mosligi aniqlanadi va ularga imtihon jarayonlari belgilanadi. Bu jarayonlar tizimli olib borilgan bo'lsa-da, abituriyentlar va oliy ta'lim muassasalaridan birlashtirilgan maxsus mas'ul xodim ishida samaradorlik yuqori emas. Bu muammolarni hal etish uchun yangi model taklif qilganmiz (1-rasm)




1-rasm. Ko'zi ojiz toifasidagi abituriyentlarni o'qishga qabul qilish mexanizmi[3]

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-3244181>

Ushbu mexanizm da abituriyentlar Bilim va malakalarni baholash agentligining platformasidan ro'yxatdan o'tish jarayonida, agar ko'zi ojiz toifasidagi abituriyent maxsus tugmani bossin, yangi oyna ochiladi va u yerda oliy ta'lim muassasasi, ta'lim shakli, tili va yo'nalishini tanlaganda, oliy ta'lim muassasasidagi mas'ul abituriyentning hujjatlarini o'rganib (1-guruh nogironi yoki maxsus maktabda tahsil olganligidan kelib chiqib) yo'naltiradi. Agar abituriyent 1-guruh nogironi bo'lsa va ko'zi ojiz maxsus maktabda tahsil olgan bo'lsa, oliy ta'lim muassasasidagi mas'ul uni oliy ta'lim muassasasida an'anaviy imtihon topshirishga yo'naltiradi, aks holda Bilim va malakalarni baholash agentligiga yo'naltiriladi. Shu bilan barcha jarayon raqamli texnologiyalar asosida onlayn amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmning afzalligi shundaki, ko'zi ojiz toifasidagi abituriyent, Bilim va malakalarni baholash agentligi, oliy ta'lim muassasasi va mas'ul xodim uchun yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish hamda xarajatlarni keskin qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Tahlil qilingan xorijiy tajribalar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi: AQSh qonunchiligiga asosan universitetlar test sinovlari va o'quv jarayonida maxsus sharoitlar yaratadi. Buyuk Britaniyada har bir universitet nogiron talabalar uchun shaxsiy reja asosida moslashtirilgan yondashuvni taqdim etadi. Qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar va yordamchi xizmatlar mavjud. Germaniyada yozma va og'zaki testlar uchun vaqt va format bo'yicha moslashtirishlar joriy etilgan, universitetlar infratuzilmasi nogironlar uchun moslashtirilgan. Yaponiyada texnologiyalarga asoslangan inklyuzivlik yo'lga qo'yilgan: universitetlar Braille printerlar, ekran o'quvchi dasturlar va psixologik maslahat xizmatlari bilan ta'minlaydi, har bir universitetda inklyuziv ta'lim markazlari faoliyat yuritadi. Janubiy Koreyada esa raqamli inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yilgan bo'lib, raqamli o'quv materiallari va onlayn kurslar keng joriy etilgan (2-rasm).




2-rasm. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar, maktab-internatlar soni donada[4]

Mazkur diagramma yillar bo'yicha maxsus ehtiyojli bolalar (shu jumladan, ko'zi ojizlar) uchun mo'ljallangan maktab va maktab-internatlar sonini aks ettiradi. Bu ta'lim muassasalari ko'zi ojiz bolalar uchun boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim olishda asosiy infratuzilma bo'lib xizmat qiladi. 2000–2010-yillarda bu maktablar soni barqaror yoki biroz o'suvchi bo'lgan. 2010–2020-yillarda turg'unlik yoki sekin kamayish tendensiyasi kuzatiladi. 2021–2023-yillarda esa nisbatan pasayish yoki tuzilmaning optimallashtirilishi ko'zga tashlanadi.



Ko'zi o'jiz abituriyentlar — bu tizimning yakuniy bosqichidagi ishtirokchilar. Bu maktablar va internatlar — ko'zi o'jiz va boshqa rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun asosiy tayanch ta'lim muassasalari hisoblanadi. Agar ularning soni kamayayotgan bo'lsa, demak, ko'zi o'jiz o'quvchilarning tayyorlov bazasi qisqarmoqda. Oliy ta'limga kirish darajasi bevosita pastlab borish xavfi mavjud. O'rta maxsus bosqichgacha bo'lgan inklyuziv ta'lim zanjirining uzilishi sodir bo'ladi.

Muassasalar sonining kamayishi — tizimdagi xavf belgisi. Tashkiliy jihatdan bunday muassasalarning yopilishi yoki birlashtirilishi iqtisodiy jihatdan maqbul ko'rinsa-da, ijtimoiy inklyuziya uchun bu salbiy ko'rsatkichdir. Oliy ta'limga kirayotgan ko'zi o'jiz yoshlar soni oshishi uchun ushbu bosqichda tayyorlov tizimi kengayishi lozim (3-rasm).



3-rasm. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar soni pragnizi

Yuqoridagi grafik asosida 2000–2023-yillar oralig'ida mavjud bo'lgan real ma'lumotlar asosida 2030-yilgacha prognoz qilingan maktablar va maktab-internatlar soni chiziqli regressiya modeli yordamida ishlab chiqildi. 2030-yilgacha prognoz tahlili. Prognozga ko'ra, 2030-yilda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab va internatlar soni 91 dan oshishi mumkin. Bu o'sish uzoq muddatli barqaror davlat siyosati va ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirishga qaratilgan islohotlar natijasi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu maktablar sonining ortib borishi ko'zi o'jiz bolalarning tayyorlov bosqichiga bo'lgan e'tibor kuchayganini anglatadi. Bu holat, o'z navbatida, ko'zi o'jiz abituriyentlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ijobiy dinamika saqlansa, 2030-yilda maxsus ta'lim infrastrukturasi yaxshilanadi, inklyuziv muhit kuchayadi, oliy ta'limga kiruvchi ko'zi o'jiz yoshlar soni ortadi.

Xulosa va takliflar

Maqolada jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan abituriyentlarni qabul qilishda uchrayotgan asosiy muammolar tahlil qilindi va tizimni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqildi. Ularning orasida adaptiv test tizimi, maxsus test markazlari, raqamli yordam vositalari va kadrlar malakasini oshirish choralarini kiritish dolzarb hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar O'zbekistonda inklyuziv ta'limni amalda kengaytirish imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga teng kirishni ta'minlash faqat huquqiy asoslar emas, balki amaliy xizmatlar, texnologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy tayyorlik orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi uchun xorijiy ilg'or tajribalarni moslashtirish asosida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan abituriyentlar uchun qulay va adolatli muhitni shakllantirish dolzarbdir. Mavjud maktab-internatlarni modernizatsiya qilish, ular sonini kamaytirmasdan, sifat jihatdan yangilash. Har bir viloyatda kamida bitta maxsus maktab-internat bo'lishini kafolatlovchi normativ hujjat ishlab chiqish. O'quvchilarni oliy ta'limga yo'naltiruvchi dasturlar joriy qilish: masalan, tayyorlov kurslari, test topshirishga moslashtirilgan treninglar. Maktab-internatlar va universitetlar o'rtasida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish, shu orqali uzluksiz ta'lim zanjiri shakllantirish.

Ko'zi o'jiz abituriyentlarning oliy ta'limga kirish huquqini ta'minlash – bu nafaqat ijtimoiy adolat, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ta'minlovchi omil hamdir. O'zbekistonda bu yo'nalishda muhim yutuqlar mavjud bo'lsa-da, ularni mustahkamlash va yanada kengaytirish davr talabi hisoblanadi. Har bir yoshga,



uning imkoniyatidan qat'iy nazar, ta'lim olish huquqi kafolatlangan bo'lishi kerak – ayni shu prinsip barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations. (2006). *Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD)*.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi, 393-son qarori, 3-ilova "Oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni o'qishga qabul qilish" tartibi
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
4. U.S. Department of Education. (2020). *Students with Disabilities Preparing for Postsecondary Education*.
5. UK Government. (2010). *Equality Act*.
6. BMBF (Germany). (2021). *Higher Education and Disability in Germany*.
7. MEXT Japan. (2019). *Promotion of Inclusive Education System*.
8. Government of Japan. (2011). *Act on the Elimination of Discrimination against Persons with Disabilities*.
9. KEDI (Korea). (2020). *Inclusive Education in South Korea*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
